



Received: August 11, 2025
Accepted: September 22, 2025
Available online: September 25, 2025

Uzoq Jo‘raqulov

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

BEHBUDIYNING TANQIDIY QARASHLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkiston jadidchiligining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy jarayon va tanqidchilikka doir fikr-qarashlari xususida so‘z yuritilgan. Mutaakkirning estetik qarashlariga xos diniy-ma‘rifiy, ma‘naviy-ijtimoiy omillarga e‘tibor qaratilgan. Uning jadid tanqidchiligi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy matbaachilik faoliyati, “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnali, “Behbudiya nashriyoti”, “Behbudiya kutubxona”sidagi amaliy faoliyati, turli mavzulardagi maqolalari bilan o‘z davri Turkiston jamiyati turmushi va ma‘naviyatiga kuchli ta‘sir o‘tkazganligi ko‘rsatilgan, XX asrning 10–20-yillari yangilanayotgan estetik tafakkuri, o‘zga millatlar adabiyotidan epik, lirik, dramatik janrlarning kirib kelishi, barmoqning qayta tirilishi, yevropacha vaznlarning milliy she‘riyat maydonida qo‘llana boshlashi, estetik mezonlar va adabiyot oldiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi va ularning barchasi milliy etika mezoniga mos kelishini taqozo etishi ochib berilgan. Behbudiyning “Tanqid saralamoqdur” va “Teyotr nadur?” maqolalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jadid tanqidchiligi, estetika, milliy ideal, adabiy tur, epik janr, lirik janr, drama, teatr, milliy fojia, uslub, syujet, obraz.

KIRISH

XX asr o‘zbek adabiy-ma‘rifiy tafakkurining yetuk namoyandasi, Turkiston jadidchilik harakatining yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy birinchi navbatda komil

Uzoq Joraqulov

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ujuraqulov@navoiy-uni.uz
ORCID iD: 0000-0003-4835-0694

BEHBUDI’S CRITICAL VIEWS

ABSTRACT

The article discusses the literary and critical views of Mahmudkhoja Behbudi, known as the father of Turkistan Jadidism. Particular attention is given to the religious-educational and moral-social factors characteristic of the thinker’s aesthetic outlook. The study highlights his significant contribution to the development of Jadid literary criticism. Furthermore, the article examines Behbudi’s activities in publishing and the press, including his practical work in the ‘Samarkand’ newspaper, Journal of ‘Oyina’, Publishing House of ‘Behbudiya’, and ‘Behbudiya’ Library. Through his numerous articles on diverse topics, Behbudi exerted a profound influence on the intellectual and spiritual life of Turkistan society in his time. The research also explores the renewal of aesthetic thought in the 1910s–1920s, marked by the introduction of epic, lyric, and dramatic genres from other literatures, the revival of the barmoq (syllabic) poetic meter, the emergence of European verse patterns in national poetry, and the transformation of aesthetic criteria and literary demands, all of which were expected to align with national ethical values. The article provides an analysis of Behbudi’s essays ‘Tanqid saralamoqdur’ (‘Criticism Is Selection’) and ‘Teyotr nadur?’ (‘What Is Theatre?’).

Key words: Jadidism, Jadid literary criticism, aesthetics, national ideal, literary genre, epic genre, lyric genre, drama, theatre, national tragedy, style, plot, image.

iymon egasi, mo'min bir inson edi [Jo'raqulov, 2003, 2006]. Uning islom ta'limoti, fiqh, aqida ilmlarini mukammal egallagani haqida manbalar xabar beradi. Ota shajarasi jihatidan Xoja Ahmad Yassaviy hazratlariga borib bog'lanadigan [Bozorova, 2020] bu zot ajdodlari yo'li va a'moliga sodiq yashadi. Samarqand, Buxoro madrasalarida ilm oladi. Iymon talafoti juda yaqin bo'lgan alg'ov-dalg'ov zamonlarda qozi, mufti lavozimlarida ishladi. Ka'batulloh safariga chiqib hoji bo'ldi.

Mutafakkir o'zining qunt va chidam bilan egallagan bilimlari, hayot tajribalaridan kelib chiqib, dastlab tug'ilgan yurti Samarqand, keyinroq butun Turkiston madaniy, ma'rifiy, ijtimoiy, adabiy hayotida muhim o'rin tutadigan shaxsga aylandi. Faoliyatining ilk davrlarida maktab va pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. 1904–1909-yillar oralig'ida oltita darslik yozdi. Darsliklarining ikkitasi islom tarixi, ikkitasi geografiya, ikkitasi boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid edi.

U jiddiyat bilan shug'ullangan yana bir soha matbuot, publitsistika bo'lgan. Davrining ongli, ilmiy, ko'p tilni biladigan, dunyo ko'rgan vakili sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy matbaachilik faoliyatidan chetda turishi mumkin emas edi. “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnali, “Behbudiya nashriyoti”, “Behbudiya kutubxona”sidagi amaliy faoliyatdan tashqari turli mavzudagi maqolalari bilan o'z davri Turkiston jamiyati turmushi va ma'naviyatiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Behbudiyning bunday maqolalari adadini professor Begali Qosimov 200ta deb belgilaydi. Boshqa mutaxassislar esa ularning soni 500tagacha bo'lganini aytishgan [Qosimov, 2002]. Nashriyotchilik, matbaachilik ishlarining faol tashkilotchisi bo'lgan mutafakkir shu jarayonda yozgan aksar maqola va chiqishlariga taxallusi yoki ismi sharifini qo'ymagan. Nom chiqarishdan ko'ra millat ishini afzal bilgan. Shu sababli uning muallifligida chop etilgan ishlarning adadi masalasi hali-hamon o'z yechimini topganicha yo'q.

Muhimi – Behbudiy yozgan maqolalar, hatto darsliklar-u “Yo'l xotiralari” gacha qaysidir jihati bilan adabiyotga, adabiy tanqidga, milliy shakldagi yangi estetikaning shakllantirish masalasiga borib taqaladi. Negaki Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda kechayotgan barcha jarayonlarning faol ishtirokchisi edi. Millatni ma'rifatli, boshqa millatlar ichida ilg'or, intellektual xalqqa aylantirish konsepsiyasi Turkiston jadidlarining, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning maslagi bo'lgan. Bunday ulug' maslak yo'lidagi eng samarador vosita esa, albatta, adabiyot edi.

Birinchi milliy drama namunasi o'laroq dastlab Samarqandda, ko'p o'tmay Avloniy boshliq “Turon” truppasi tomonidan Toshkentda sahnalashtirilgan “Padarkush”ning o'z davri ijtimoiy-ma'naviy hayotida qanchalar jiddiy rezonans bergani ko'pchilikka ma'lum. Taqdir taqozosi bilan milliy adabiyotga yangi janrni tatbiq etish, ilk bor sahnalashtirish missiyasi yelkasiga tushgan Behbudiy, ijtimoiy-ma'naviy, adabiy-estetik ehtiyoj bois badiiyat ilmi, adabiy tanqid masalalariga ham qo'l urdi. Ma'lum ma'noda yangi estetikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan jadid tanqidchiligini boshlab berdi.

Bir qarashda “jadid tanqidchiligi” istilohi o'rinsiz qo'llangandek tuyiladi. Chunki, ko'pchilik 10–20-yillar tanqidchiligini ham XX asr o'zbek zamonaviy tanqidchiligining bir bo'laki sifatida tushunadi. Nari borsa, bugungi tanqidchilikning

ibtidosi, boshlang‘ich nuqtasi deb qabul qiladi. Ammo fikrlar turlichaligidan qat‘i nazar, jadid tanqidchiligi alohida hodisa. Shu ma‘noda an‘anaviy mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidchiligidan tom ma‘noda farq qiladi. Ya‘ni, an‘anaviy mumtoz adabiyotshunosligida tanqid nazariyasining asosini “balog‘at ilmi” tashkil etgan. Ijodkor asariga baho berishda uning iymon-e‘tiqodi, atrof-muhit, insonlarga islomiy munosabati, badiiyat va til ilmini naqadar mukammal egallagani mezon qilib olingan. O‘zbek zamonaviy tanqidchiligining jadidchilikdan keyingi, mustaqillikkacha bo‘lgan bosqichi sovet tanqidchiligi tarkibiga kiradi. Sovet tanqidchiligining bosh mezonini esa markscha-lenincha e‘tiqod, kompartiyaning ko‘rsatmalari edi. Sovet munaqqidi o‘z ilmiy-adabiy tadqiqotlarida mana shu mezonlarga qay darajada izchil rioya qilganiga qarab, mavqe-martabaga ega bo‘lardi. Jadid tanqidchiligi bo‘lsa, mohiyatan, uch asosga tayanadi: diniy (bu jihati bilan mumtoz adabiyotshunoslikka tutashadi), milliy va jahon badiiy tafakkuri ta‘sirida yangilanayotgan tanqidiy nuqtayi nazar. Mahmudxo‘ja Behbudiy avangardlardan bo‘lib, bosh qo‘shgan bu yo‘l keyinroq Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Vadud Mahmudlar tomonidan izchil davom ettirilgan jadid tanqidchiligining ibtidosi edi.

Yuqorida qayd etganimizdek, umuman, adabiyot ilmi, badiiy asarning jamiyat uchun manfaati, axloq va adabiyot masalalari Behbudiyning maktab darsliklaridayoq matn tarkibiga singdirib yuborilgan. U alohida risola sifatida chop etgan islom tarixini esa adabiyot va badiiyat ilmidan tashqarida turib bayon qilib bo‘lmasligi ayni haqiqat. Adabiyot va islomga doir darsliklarni istisno etganimizda ham, jahon tarixi, geografiyasi haqidagi darsliklarning barchasida yer sharidagi millat-u elatlarning joylashuvi, dini, tili, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlari haqidagi ma‘lumotlar orasida, albatta, adabiyoti, madaniyati haqida ham ma‘lumotlar, aniq munosabatar aks etganiga guvoh bo‘lamiz. Demak, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati hech qachon adabiyot va adabiy tanqiddan tashqarida bo‘lmagan.

ASOSIY QISM

Behbudiyning bevosita tanqid muammolariga doir ikki maqolasi “Oyina” jurnalining 1914-yil 27–29-sonlarida e‘lon etilgan. Birinchi maqola “Tanqid saralamoqdur” deb nomlanadi [Behbudiy, 1914a]. Bu maqola haqiqatan jadid tanqidchiligi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. XX asrning 10–20-yillarining yangilanayotgan estetik tafakkuri, o‘zga millatlar adabiyotidan epik, lirik, dramatik janrlarning kirib kelishi, barmoqning qayta tirilishi, yevropacha vaznlarning milliy she‘riyat maydonida qo‘llana boshlashi, estetik mezonlar va adabiyot oldiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi, muhimi, ularning barchasi milliy etika mezoniga mos kelishini taqozo etardi. Bu ulkan muammo oldida faqat va faqat jadid ziyolilari mas‘ul edilar. Behbudiyning “Tanqid saralamoqdur” maqolasi davr ma‘naviy hayoti qo‘ygan estetikaning jiddiy savoliga berilgan ilk javob bo‘ldi.

Mutafakkir o‘z maqolasida islomning tub asosi bo‘lgan “avsat” (o‘rtaliq) mezoniga tayanadi. Adabiy tanqidning “naqd”, ya‘ni muhimini kashfetish funksiyasini asos qilib oladi. Badiiy asarga baho berishda uning ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-milliy foydasiga urg‘u beradi. Shu tarzda tanqidning saralovchilik vazifasi, bunda munaqqid

asoslanishi shart bo'lgan mezonlarni ishlab chiqadi va asoslab beradi.

O'zbek adabiyotiga yangi adabiy tur va janrlarning kirib kelishi o'ziga xos estetik hodisa, millat tafakkuridagi ko'tarilish jarayoni desak, xato bo'lmaydi. Ma'lumki, XX asrning 10-yillarida o'zbek adabiyoti yangi she'riy shakllar bilan bir qatorda, tamoman noan'anaviy bo'lgan nasriy va dramatik janrlar bilan ham boyidi. Jumladan, dramaturgiya qisqa fursat ichida ommalashib ketdi. Yangi janrlar tatbiqi bilan bog'liq ilk estetik bahslar ham aynan dramaturgiya borasida bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiylarning "Teyotr nadur?" nomli maqolasi drama asarlarini targ'ib etish yo'lidagi dastlabki jiddiy urinishlardan edi [Behbudiyl, 1914b]. Maqola mohiyat e'tibori bilan ko'proq tanishtiruv, axborot, targ'ibot xarakteriga ega. Chunki, Behbudiyl o'z maqolasida asosan o'quvchi va dramatik asar, millat va teatr kabi masalalarga to'xtalgan. Mavjud jamiyatning intellektual darajasi, ma'naviy qadriyatlari, qiziqishlari, intilishlaridan kelib chiqib, drama va teatr tushunchalarini izohlashga uringan. Biroq xuddi shu birlamchi tadqiqot o'ziga xos nazariy-estetik mohiyat ham kasb etadi. Muallif teatrni "ibratxona", "ta'ziri adabiy", "oyina" deb ta'riflar ekan, dramatik turning muayyan auditoriya vositasida rivojlanishi, ijtimoiy-estetik ahamiyati, hayotiy hodisalarni aks ettirish usuli kabi sof nazariy masalalar ham tabiiy talqinini topadi. Qolaversa, Behbudiyl dramatik turning: tragediya, komediya, drama janrlari ustida muxtasar to'xtalib o'tadi. Bu janrlarga xos eng muhim xususiyatlarni ko'rsatishga harakat qiladi.

Behbudiylarning teatr xususidagi qarashlarini axloqiy-estetik tamoyillar asosida tahlil qilish yo'lida Vasliy Samarqandiy "Shariati Islomiya" maqolasini yozgan [Samarqandiy, 1914]. Behbudiyl talqinlarining fiqhiy masalalar bilan naqadar mos kelishi borasida fikr yuritgan. Muammoni shariat mezonlari asosida hal etishga uringan va asosiy masala borasida Behbudiylni tanqid ostiga olgan, inkor etgan. "Oyina" jurnalining 1915-yil 50-sonida Vasliyga javoban Behbudiylning "Teatr, musiqa, she'r" nomli maqolasi chop etilgan [Behbudiyl, 1915]. Behbudiyl dastlabki maqolasida bildirgan fikr-u qarashlarini endilikda shar'iy, axloqiy, ijtimoiy jihatdan mukammallashtiradi. Millat, xususan, islom millati manfaatlaridan kelib chiqib tushuntiradi. Jadid estetikasining asoschilaridan biri sifatida teatrning millat tarbiyasidagi ahamiyatiga urg'u beradi. Vasliy Samarqandiy boshlagan bahsga yakun yasashi bilan birga, teatr va ijtimoiy hayot, teatr va milliy taraqqiyot, teatr san'atining jahon xalqlari intellektual yuksalishidagi o'rni, teatr va drama nazariyasi degan jiddiy masalalarning ham shar'iy, ham ilmiy yechimini ko'rsatib beradi. Behbudiylning bu kabi qarashlari jadid tanqidchiligining keyingi bosqichlari, XX asrning 30-yillari boshiga qadar adabiy tanqidning milliy namunasi o'laroq o'zining muhim ta'sirini saqlab qoldi.

XULOSA

1. Jadid estetikasining shakllanish bosqichida adabiyotning mohiyati, insoniyat hayotidagi o'rni, vazifasi kabi umumiy muammolar talqini yetakchilik qildi.

2. Milliy ma'rifat, milliy adabiyot masalalari chuqurlashgan XX asrning 10–20-yillaridan e'tiboran ijodkor shaxsiyati, dunyoqarashi, ijod qilishdan maqsadi,

milliy adabiyot va yangi estetika taraqqiyoti bosh masalasiga aylandi.

3. Barcha adabiy tur va janrlar zamon talabi, madaniyatlar kesishuvi natijasida yangilana boshladi. Adabiy tanqid va uning ijtimoiy-estetik mezonlari masalasi kun tartibiga qo'yildi. Tafakkur yangilanishlari, davr qo'ygan adabiy-estetik savollarga javob izlovchilar va yechim topuvchilar boshida ham Mahmudxo'ja Behbudiy yetakchiligidagi jadidlar turishdi.

4. Milliy dramaturgiyaning o'ziga xosliklari, estetik qimmati, tarbiyaviy ahamiyati kabi muammolar dastlab Behbudiy tomonidan shar'iy, milliy va ilmiy yo'sinda talqin qilindi. Dramatik asarning sahnalashtirilishi, teatrning ijtimoiy hayotdagi o'rni masalalarida muayyan bahs-munozaralar tug'ildi. Bunday munozarali holatlar ham diniy va dunyoviy ilmlar egasi Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy-tanqidiy maqolalarida aks etgan xulosalarida o'z yechimini topdi. Milliy tanqidchilik va tanqid nazariyasining birlamchi omili bo'lib tarixda qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Behbudiy, M. (1914a). Tanqid – saralamoqdur. *“Oyina” jurnali*, 27.
2. Behbudiy, M. (1914b). Teyotr nadur?. *“Oyina” jurnali*, 29, 550–553.
3. Behbudiy, M. (1915). Teatr, musiqa, she'r. *“Oyina” jurnali*, 50.
4. Bozorova, N. (2020). Latest studies of latoif in stories. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 19(1), 158–161.
5. Jo'raqulov, U. (2003). *Fitratning tadqiqotchilik mahorati*. Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.
6. Jo'raqulov, U. (2006). *Hududsiz jilva*. Toshkent: Fan.
7. Qosimov, B. (2002). *Milliy uyg'onish*. Toshkent: Ma'naviyat.
8. Samarqandiy, V. (1914). Shariati islomiya. *“Sadoyi Farg'ona” gazetasi*, 83.

REFERENCES

1. Behbudi, M. (1914a). Criticism is selection. *Journal of 'Oyina'*, 27.
2. Behbudi, M. (1914b). What is theatre?. *Journal of 'Oyina'*, 29, 550–553.
3. Behbudi, M. (1915). Theatre, music, poetry. *Journal of 'Oyina'*, 50.
4. Bozorova, N. (2020). Latest studies of latoif in stories. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 19(1), 158–161.
5. Joraqulov, U. (2003). *Fitrat's research mastery*. Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
6. Joraqulov, U. (2006). *Boundless radiance*. Tashkent: Science.
7. Qosimov, B. (2002). *National revival*. Tashkent: Spirituality.
8. Samarqandi, V. (1914). Islamic sharia. *Newspaper of 'Voice of Fergana'*, 83.